



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT TA'LIMINING MAQSADI, VAZIFALARI VA PEDAGOGIK AHAMIYATI

Esanova Hulkar Abdurayim qizi

Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

email: hulkaresanova410@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at fanining o'quvchilarda badiiy-estetik madaniyatni shakllantirishdagi pedagogik ahamiyati yoritiladi. Unda tasviriy san'at darslarining o'quvchilarda ijodiy tafakkur, kuzatuvchanlik, estetik did va badiiy idrokni rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, tasviriy san'at ta'limining milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'quvchilar ongiga singdirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, badiiy-estetik tarbiya, ijodiy tafakkur, badiiy madaniyat, kuzatuvchanlik, estetik did, san'at ta'limi.

THE PURPOSE, TASKS, AND PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF VISUAL ARTS EDUCATION IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

Esanova Hulkar Abdurayim kizi

Student, Gulistan State Pedagogical Institute

email: hulkaresanova410@gmail.com

Annotation: this article highlights the pedagogical significance of visual arts education in general secondary schools in the formation of students' artistic and aesthetic culture. It analyzes the role of visual arts lessons in developing students' creative thinking, observation skills, aesthetic taste, and artistic perception. In



addition, the study scientifically substantiates the importance of visual arts education in instilling national and universal values in students' consciousness.

Keywords: visual arts, artistic-aesthetic education, creative thinking, artistic culture, observation skills, aesthetic taste, art education.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at o'quv predmetining asosiy maqsadi shaxsni baramol va komil inson sifatida tarbiyalash, uning badiiy madaniyatini shakllantirishdan iboratdir [1:12]. Tasviriy san'at o'quv predmeti har bir shaxs uchun zarur bo'lgan badiiy madaniyatning elementar bilim va ko'nikmalarini beradi, chunki har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada faoliyat yuritishidan qat'iy nazar, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi, ish vaqtida sarflangan kuchini tiklashi zarur [2:355]. Bu esa yuqori badiiy saviyada yaratilgan san'at asarlari bilan tanishish, muzeylar, ko'rgazmalar va boshqa madaniy maskanlarda ularni idrok etish va zavqlanish orqali amalga oshiriladi [3:303]. Bundan tashqari, ko'pchilik o'quvchilar kelajakda ma'lum darajada rasm ishlashga duch keladi. Rasm chizishni bilish nafaqat rassomlar, dizaynerlar va me'morlar uchun, balki o'qituvchilar, injenerlar, tibbiyot xodimlari, quruvchilar, agronomlar, harbiylar va olimlar uchun ham muhimdir [4:3]. Ularning har biri faoliyatida rasm, sxema, diagramma va eskizlardan foydalanib, so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan g'oya va fikrlarini tasvirlashga harakat qiladi.

Shu bilan birga, bu maktablarda tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlaridan chuqur va keng bilimlar berilishi shart emas. Umumiy o'rta ta'lim maktablari bolalarga boshqa fanlar qatori, tasviriy san'atning elementar bilim va ko'nikmalarini berishni maqsad qiladi. Maktablar rassom tayyorlamaydi va iqtidorli bolalarni rivojlantirish bilan shug'ullanmaydi; bunday tayyorgarlik to'garaklar, maxsus maktablar, akademik litseylar, kollej va oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladi [5:1491]. Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida bolalarga haddan ziyod murakkab va ortiqcha zo'riqishga olib keladigan topshiriqlar berish



pedagogik jihatdan to‘g‘ri emas. Maktablarda tasviriy san‘atdan elementar bilim va malakalarga mos o‘qitish metodlarini qo‘llash lozim, ammo oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida qo‘llaniladigan metodlarning ayrim jihatlaridan foydalanish mumkin [6:10], lekin ularni to‘laligicha tatbiq etish maqsadga muvofiq emas.

Tasviriy san‘at o‘quv predmetining muhim vazifalaridan biri – boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda o‘quvchilarni badiiy va estetik idrokka o‘rgatishdir. Ayniqsa, o‘qish, adabiyot, geografiya, tabiatshunoslik, biologiya, tarix, matematika va mehnat darslarida tasviriy san‘at o‘quv materiallarini vizual qo‘llash samaradorlikni oshiradi [7:8]. Shuningdek, fizika, jismoniy tarbiya, kimyo va musiqa darslarida ham tasviriy san‘at usullaridan foydalanish foydalidir.

O‘quvchilarda kuzatuvchanlikni rivojlantirish tasviriy san‘at darslarining eng muhim vazifalaridan biridir. Odamzot tomonidan qabul qilinadigan axborotning taxminan 90 foizi ko‘z orqali, 10 foizi esa boshqa sezgi organlari orqali qabul qilinadi [8:222]. Shu sababli ko‘z va xotirani rivojlantirish faoliyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Tasviriy san‘at mashg‘ulotlarida o‘quvchilar narsalar va hodisalarning tuzilishi, shakli, rangi, o‘lchovlari, fazoviy joylashuvi va harakat go‘zalligini kuzatadilar, xotirada saqlashga harakat qiladilar. Natijada ular keng va chuqur tasavvurga ega bo‘lib, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi [9:181]. Bundan tashqari, tasviriy san‘at darslarining yana bir muhim vazifasi san‘at asarlarini “o‘qish”ga o‘rgatishdir. Tasviriy san‘at asarlari ertak, hikoya, doston yoki roman kabi mazmuni vizual tilda ifodalaydi. Ularni idrok qilish rassomlar tomonidan ishlatiladigan chiziq, rang, o‘lchov, kompozitsiya, proporsiya, ritm va simmetriya kabi ifodalilik vositalarini tushunishni talab qiladi [10:4]. Xususan, tarixiy va turmush janridagi asarlar, shuningdek turli xalqlar va mamlakatlar haqida to‘la-to‘kis ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi [11:172]. Shu orqali o‘quvchilar badiiy mazmuni chuqur anglaydi, asarning badiiy qiymatini baholay oladi va go‘zallikdan zavqlanadi.



Tasviriy san'at darslari yoshlarda milliy g'urur va milliy istiqol mafkurasini shakllantirish, vatanparvarlik, do'stlik va o'zaro yordam g'oyalarini tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Maktab dasturida Vatanimizning buyuk tarixi, mustaqillik uchun kurashgan vatandoshlarimiz, O'zbekistonning tabiiy go'zalliklari va xalqlar do'stligi g'oyalarini ifoda etuvchi asarlar keng o'rin egallaydi [12:156]. Shuni ta'kidlash lozimki, tasviriy san'at o'quv predmeti bolalarning ko'ngil ochishi uchun emas, balki ijodkorlik, tafakkur, badiiy-estetik did, kuzatuvchanlik va hayotni bilishga yordam beruvchi, ezgulikni yovuzlikdan ajrata oladigan pedagogik vositadir. Har qanday o'quv predmetining mazmuni milliy boy madaniy merosga asoslanishi lozim, shu bois o'zbek xalqining me'morchilik, dekorativ-amaliy va tasviriy san'at asarlarini maktablarda keng va chuqur o'rgatish zarur. Shu bilan birga, jahon madaniyati durdonalarini o'quvchilarga yetkazmasdan, milliy qadriyatlarni tanishtirish yetarli emas.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at o'quv predmeti o'quvchilarda badiiy madaniyatni shakllantirish, kuzatuvchanlikni rivojlantirish, ijodkorlik va estetik tafakkurni o'stirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vositadir [1:12]. U shaxsni baramol va komil inson sifatida tarbiyalash, turli fanlar bilan integratsiyalashgan holda bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi. Tasviriy san'at mashg'ulotlari orqali o'quvchilar san'at asarlarini idrok etish, go'zallik va badiiy ifodaning mohiyatini tushunish, shuningdek milliy g'urur, vatanparvarlik va jamiyatga mas'uliyat hissini shakllantiradilar [5:1489]. Shuningdek, tasviriy san'at nafaqat ko'ngil ochar fan sifatida, balki o'quvchilarning ijodiy, estetik va axloqiy tarbiyasini rivojlantirishda, ularni hayotni anglash va o'zgartirishga, ezgulikni yovuzlikdan ajrata olishga o'rgatuvchi vosita hisoblanadi [12:157]. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at elementar bilim va ko'nikmalarga qaratilgan holda, o'quvchilarni milliy va jahon madaniy merosi bilan tanishtirish, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim.



Shu bilan birga, tasviriy san'at darslarida metodik yondashuv bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi, ortiqcha zo'riqish va murakkablikdan saqlanishi pedagogik jihatdan muhimdir. Bu esa maktab o'quvchilarida san'atni idrok etish, ijodiy fikrlash va badiiy-estetik didni shakllantirishda samaradorlikni oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san'at o'quv predmeti nafaqat bolalarning ijodiy va estetik qobiliyatlarini rivojlantirish, balki ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish, hayotiy ko'nikmalarini boyitish va shaxs sifatida kamol topishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

ADABIYOTLAR \ REFERENCES:

1. Хайров Расим. ИНДИВИДУАЛЬНЫЙ ПОДХОД И СОЗДАНИЕ СИТУАЦИИ УСПЕХА НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА. В International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) Volume. 7, Issue 02, February (2024) Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10778131>
2. Odiljon I., Gulnoza H. TALABALARNI CHIZMACHILIK DARSLARIDA IJODIY–KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH //Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal. – 2024. – T. 2. – №. 1. – С. 355-358.
3. Imomov, F. S. o'g'li . (2023). TARBIYASI OG'IR BOLALARNI QAYTA TARBIYALASHDA TASVIRIY SAN'ATNI O'RNI. SCHOLAR, 1(33), 302–306. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10341543>
4. Baxtiyarova, F. "MODERN TECHNOLOGIES IN DEVELOPING PROFESSIONAL CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS." Ilm-Fan Va ta'lim 1.1 (2023).
5. MORAL AND AESTHETIC PRINCIPLES OF EASTERN THINKERS: APPLICATION IN MODERN EDUCATION / N. Jumaboyev. – International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – № 4. – P. 1489-94.



6. Yusupova Shoxista Alimjanovna. (2025, октябрь 21). IJODIY QOBILİYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA KOMPOZITSIYANING PEDAGOGIK AHAMIYATI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17407745>.
7. Shoxista, Y. "TASVIRIY SAN'AT MASHG 'ULOTLARIDA IJODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH USULLARI." Uz-Conferences, 2023.
8. Pardaboevich, Jumaboyev Nabi. "THE APPLICATION OF EASTERN PHILOSOPHICAL AESTHETIC CONCEPTS IN ARTISTIC EDUCATION AND THEIR INTERPRETATION IN PEDAGOGICAL RESEARCH." PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI 14.01 (2025): 218-222.
9. Faxriddinovich, Xamrayev Abubakir. "TASVIRIY SAN'AT FANINING TA'LIM JARAYONIDA SHAXSNI ESTETIK VA IJODIY RIVOJLANTIRISHDAGI PEDAGOGIK AHAMIYATI." TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI 2.4 (2025): 181-187.
10. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCIES AS THE FOUNDATION OF PROFESSIONAL GROWTH FOR VISUAL ARTS TEACHERS. Zenodo." 2025,
11. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "BEAUTY AND MORAL EDUCATION IN EASTERN PEDAGOGY: OPPORTUNITIES FOR APPLICATION IN THE PROCESS OF ARTISTIC EDUCATION." ИКРО журнал 16.01 (2025): 170-172.
12. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "Education of Young People in Eastern and Modern Spirit Taking Historical Values into Account." Innovative Science in Modern Research (2023): 156-157.